

## OAV INTERNETNING TASNIFI: TAXLIL VA MUXOKAMA

**Madiyarov Babur Allambergenovich**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

[madiyarovbabur@gmail.com](mailto:madiyarovbabur@gmail.com)

**Annotatsiya:** Jahonda sodir bo‘layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchilardan bo‘lib OAV interneti orqali uzatiladi. O‘z navbatida auditoriya tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar asosida ommoga yetkazib berishda OAV internet nashrlarning tutgan o‘rni beqiyos. Shuningdek, O‘zbekistonning mashhur OAV internet manbalari tahlil qilish va tasniflash to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** OAV internet tili, o‘zbek internet manbalari, onlayn nashrlar, , sarlavha, matn, internet man‘ba.

## CLASSIFICATION OF INTERNET MEDIA: ANALYSIS AND DISCUSSION

**Abstract:** Current topics, events, and incidents happening worldwide are among the first to be transmitted through the Internet of Media. On the other hand, the role played by mass media and Internet publications in delivering the audience to the public based on principles such as speed, objectivity, and accuracy is incomparable. Also, the analysis and classification of Uzbekistan's popular mass media internet sources will be discussed.

**Keywords:** Media internet language, Uzbek internet sources, online publications, title, text, internet source.

Ayni paytda, bosma ommaviy axborot vositalarining axborot agentliklarining yangiliklar lentalaridan foydalanish sezilarli darajada kamaydi. Gap shundaki, jurnalistika sohasidagi yetakchi mutaxassislarning fikr-mulohazalariga ko‘ra, zamonaviy bosma nashrlar axborot uzatish tezligi bo‘yicha internet nashrlari, radio va televideniye bilan raqobatlasha olmasligi hammamizga ma‘lum. Shuning uchun, yangiliklarni tahlil qilish an‘anaviy OAVning asosiy quroliga aylanmoqdi. Shu bilan birga, elektron ommaviy axborot vositalari auditoriya uchun yangiliklarning birinchi yetkazuvchi manbasiga aylanib, ular orasida farqli jihat mana shu xususiyatlarni o‘z ishiga olgan.

Yangilikni ommaga yetkazishning asosiy vazifasi, u axborot yangiligi yoki yo‘qligidan qat‘i nazar, o‘quvchilarga atrofdagi yuz berayotgan voqealardan kelib

chiqib qanday harakat qilishda yordam berishdir. Binobarin, ushbu maqsadga erishish uchun asosiy janrlar shunchaki eslatma, axborot yozishmalari, axborot suhbat, tezkor so‘rov, savol-javob, xabarnoma bo‘lib, internet media rivojlanishi bilan bu barcha janrlar ajralib chiqa boshladi.

Ammo, shuni ham aytib o‘tish kerakki, hozirgi paytda o‘zbek jamoatchiligi uchun yangiliklarning asosiy onlayn axborot manbaiga aylanib ulgurgan “*uza.uz*”, “*kun.uz*”, “*daryo.uz*”, “*gazeta.uz*”, “*qalampir.uz*” saytlaridan olingan ma‘lumotlarni qayta ishlov berilib boshqa har xil platformlarda paydo bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar bir-biridan farq qilmaydigan yuzlab bir xil ma‘lumot xabarlarini bir necha daqiqada paydo bo‘ladi. Shuning uchun, eng ommabop yangiliklar lentalarini nafaqat tez va ro‘yirost taqdim etadigan, balki turli manbalardan foydalangan holda kengroq tarzda ochib beradi. Bu saytlarga tashrif etuvchilar dinamikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak masalan bir kunni o‘zida “*daryo.uz*” saytiga 817 395 ta foydalanuvchi kirib ko‘rgan<sup>1</sup> bo‘lsa o‘tkan hafta bu ko‘rsatkich 5 293 888 qayt etgan. Bu ma‘lumotlardan bizga ma‘lum bo‘ladi insoniyatning yangilikga bo‘lgan extiyoji kun sayin ortib bormoqda.

Onlayn nashrlarning yuqori darajadagi interaktivligi onlayn konferentsiyalar kabi janrning paydo bo‘lishiga olib keldi, unda barcha qiziqqan o‘quvchilar muharrirga savol yo‘llash orqali intervyu beruvchiga aylanishlari mumkin. Odatda, muharrirlar ma‘lum bir soha bo‘yicha mutaxassisni taklif qilishadi, suhbat mavzusini aniqlaydilar va yuborilgan savollarni munozara sabab boladiganlarini diqqat bilan tanlaydilar. Shuni ta’kidlash kerakki, savollar suhbat davomida ham yuborilishi mumkin. Onlayn konferensiya davomida muharrirlar intervyuning matnli translyatsiyasini taqdim etishlari sababli, o‘quvchilar suhbatdoshiga aniqlik kirituvchi maqsadida savollarni berishlari mumkin. Bu uni an’anaviy gazeta janridan ajratib turadigan asosiy xususiyatlaridan biri<sup>2</sup>.

Uzoq davom etuvchi voqeani yoritishning eng tez va qulay usuli bu qisqa yangiliklar to‘plami bo‘lgan onlayn reportaj hisoblanib, so‘nggi paytlarda davlat rasmiy tadbirlari va xalqaro uchrashuvlarda keng miqyosda foydalanilib kelmoqda. Masalan, “*uza.uz*” sayti orqali 26-30 avgust kunlari Samarqand shahrida XIII Xalqaro musiqa festivali Sharq taronalari Registon maydonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn fotoreportaj<sup>3</sup> tarzda yoritildi. Ushbu usulning qulayligi shundaki,

<sup>1</sup> <https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings>

<sup>2</sup> Лукина М.М., Фомичева И.Д. СМИ в пространстве Интернета [Электронный ресурс] / МГУ им. М.В. Ломоносова. – 2005. – Режим доступа: [http://evartist.narod.ru/text19/034.htm#\\_ftn14](http://evartist.narod.ru/text19/034.htm#_ftn14).

<sup>3</sup> [https://uza.uz/uz/posts/samarqandda-26-30-avgust-kunlari-sharq-taronalari-xiii-xalqaro-musiqa-festivali-bolib-otadi-video\\_626501](https://uza.uz/uz/posts/samarqandda-26-30-avgust-kunlari-sharq-taronalari-xiii-xalqaro-musiqa-festivali-bolib-otadi-video_626501)

ma'lumotlar juda qisqa xabarlarda taqdim etiladi va eng muhim va qiziqarlilarini o'z ichiga oladi.

Onlayn nashr sohasida bu tarizdagi bardavom taraqqiyot boshqa ana'naviy OAV ham shakllarini yanada takomillashishiga sabab bo'lmoqda desak xato bo'lmaydi Binobarin, Internet-jurnalistika kabi keng ko'lamlı hodisa butun jurnalistikani o'zgartira olmasligi mumkun, ammo ommaviy axborotni taqdim etishning yangi badiiy usullarini joriy qila oladi. Masalan, televidenie nafaqat veb-texnologiyalarni o'z dasturlariga qo'shishga harakat qilmoqda.

Shunday qilib, zamonaviy jurnalistikada insoniyat so'ngi o'ng yillikda juda ko'p turli xil ma'lumotlarni olayotganda tezkor xabar janrlari birinchi o'ringa chiqishiga guvoh bo'ldik. O'z navbatida bu voqelikni amalga oshishida onlayn nashr o'rni beqiyosdir. Bu, albatta, onlayn jurnalistikani an'anaviy jurnalistikadan ajratib turuvchi fazilatlar bu albatta interaktivlik va doimiy yangilanish bilan bog'liq<sup>4</sup>. Yangi tarqatish kanali tufayli ko'plab eski janrlar bosma jurnalistikaning an'anaviy janrlariga nisbatan o'zgartirildi. Bundan tashqari, yangi janrlar rivojlana boshladi, ulardan biri, oldin aytib o'tganimizdey bu blog.

Darhaqiqat, internet foydalanuvchilarga jahonda va o'z yurtimizda yuz bergan voqealarga tezkorlik bilan javob berish, xolislik va aniqlik kiritish dolzarb masala hisoblaniladi. Onlayn nashrdagi rasmiy axborot insonga ijtimoiy va texnik me'yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me'yorlarga amal qilmaslikning bo'lg'usi salbiy oqibatları haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. <https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings>
2. Лукина М.М., Фомичева И.Д. СМИ в пространстве Интернета [Электронный ресурс] / МГУ им. М.В. Ломоносова. – 2005. – Режим доступа: [http://evartist.narod.ru/text19/034.htm#\\_ftn14](http://evartist.narod.ru/text19/034.htm#_ftn14).
3. [https://uza.uz/uz/posts/samarqandda-26-30-avgust-kunlari-sharq-taronalari-xiii-xalqaro-musiqa-festivali-bolib-otadi-video\\_626501](https://uza.uz/uz/posts/samarqandda-26-30-avgust-kunlari-sharq-taronalari-xiii-xalqaro-musiqa-festivali-bolib-otadi-video_626501)
4. Hakimboyeva Y.A. Zamonaviy media makonda internet va unda axborot almashinuvining o'ziga xosligi. Scientific progress. Volume 2. Issue 6 2021. ISSN: 2181-1601.

---

<sup>4</sup> Hakimboyeva Y.A. Zamonaviy media makonda internet va unda axborot almashinuvining o'ziga xosligi. Scientific progress. Volume 2. Issue 6 2021. ISSN: 2181-1601.